


2. Qanday buyumlarni tayyorlashda ipak va jun iplardan foydalaniladi? O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini doskadagi klasterga yozishda davom etadi.



Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning erishgan natijalarini baholaydi. O'quvchilarga mustaqil tayyorgarlik sifatida kimyoviy toladan olingan sun'iy ipning qanday afzalliklari borligi haqida internet tarmog'idan ma'lumot izlash tavsiya etiladi.

O'qituvchi keyingi darsda bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ish bilan tanishib chiqishni va kelgusi dars uchun zarur bo'ladigan materiallar ro'yxatini tuzishni taklif etadi.

2-dars. Chittak

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda ip bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ip bilan ishlash orqali o'quvchilarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish..

Kerakli materiallar: oq va qora qog'oz, yelim, qaychi, oddiy qalam, o'chirg'ich, ip g'altagi.

Salomlashish (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat tekshiruvini o'tkazadi, shuningdek, o'tilgan dars bo'yicha bilimlarni faollashtirish uchun savollar beradi.

1. O'tgan darsda nimalar haqida bilib oldingiz?
2. Ip kelib chiqishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Sintetik ip haqida nimalarni o'rgandingiz?
4. Bu ipning qanday afzalliklari mavjud?

O'qituvchi bugungi darsning maqsadi ip yordamida chittak qushchasini yasash ekanligini ma'lum qiladi.

O'qituvchi tayyor mahsulot namunasini ko'rsatadi va quyidagi savollarni beradi:

1. Mahsulot qanday materialdan tayyorlangan?
2. Mahsulot qanday qismlardan iborat?
3. Qismlar qanday usulda tayyorlangan?
4. Ular qanday usulda birlashtirilgan?

Shundan so'ng o'quvchilarga videorolik ko'rish va ish rejasini tuzish taklif etiladi.

Amaliy qism (30 daqiqa).

O'quvchilar mustaqil ravishda ishlaydilar, zarur bo'lganda o'qituvchi yordam ko'rsatadi. Vazifani bajarish jarayonida o'qituvchi qiyinchilikka duch kelgan o'quvchilardan qo'l ko'tarishlarini so'rashi tavsiya etiladi. Agar shunday o'quvchilar bo'lsa, o'qituvchi ularga partadoshidan yordam so'rashni taklif qilishi yoki o'zi bevosita yordam berishi mumkin.

Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarni rag'batlantiradi:

Bugun hammangiz a'lo ishladingiz, barchamiz ajoyib mehnat qildik. Keling, doska oldida kichik ko'rgazma uyushtiraylik va ishlarimizni yana bir bor tomosha qilaylik.

O'quvchilar o'z ishlarini namoyish etadilar va o'zlarini O'qituvchi keyingi darsda bajarilishi kerak bo'lgan amaliy ish bilan tanishib chiqishni va kelgusi darsda kerak bo'ladigan materiallar ro'yxatini tuzishni taklif qiladi.

3-dars. Ip ("Vaza" amaliy mashg'uloti)

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda zig'ir o'simligi, uni tayyorlash texnologiyasi va foydalanish usullari haqida tasavvur hosil qilish;
- paxta ishlab chiqarish bosqichlarini esga olish;
- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;